

GEOGRAFIYA DARSLARIDA “ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLAR”
MAVZUSINI O`QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO`LLASH

F.S.Meliboyeva

QDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
kafedrasi katta o`qituvchisi,

M.A.Mamatvaliyeva
talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda ta`lim tizimining dolzarb masalalari, o`qitishning zamonaviy interfaol metodlari tog`risida ma`lumotlar berilgan. Shu bilan birga 9-sinf geografiya darslarida “Zamonaviy ekologik muammolar” mavzusini o`qitishda “Olma daraxti” metodi, “Maktub” metodi, “Baliq skeleti”metodi “Aqliy hujum” metodlari yordamida dars o`tish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Kalit so`zlar: “Olma daraxti” metodi, “Maktub” metodi, “Baliq skeleti” metodi, “Aqliy hujum” metodi, interfaol metodlar.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizning rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida davlat va jamiyat hayotining tubdan isloh qilishga qaratilgan 300 yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Yangi O`zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-ma`rifiy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan bir qator yangiliklar, qarorlar, har bir soha hamda soha vakillari uchun alohida maqsad va vazifalar ishlab chiqilgan. Xususan, bu sohalarda ichida ta`lim sifatini oshirish bo`yicha strategiyaning 41-maqsadida maktablarni rivojlantirishda yangi maktablar qurish, xususiy maktablarni ko`paytirish, ta`lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturlar ishlab chiqarish, o`quv o`rinlar sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4million nafargacha yetkazish, 2022-2026 yillarda 217 ta “Barkamol avlod” bolalar maktabini rivojlantirish borasida dasturni amalga oshirish, yoshlarni san`at dunyosiga jalb etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta`minlangan 100mindan ortiq bepul to`garaklar faoliyatini yo`lga qo`yish, chekka hududlarda maktab hamda maktabgacha ta`lim muassasalarigacha transport qatnovini yo`lga qo`yish kabi maqsadlar qo`yilgan.

Geografiya fanini o`rganishda o`quvchilarni bilish faoliyatini faollashtirish uchun o`quvchilarni o`tgan mavzulari yuzasidan o`zlashtirgan bilim, ko`nikma va malakalarini aniqlash, ularni tizimlashtirish, yangi mavzu yuzasidan o`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash, shuningdek, yangi mavzuni o`rganish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish ijobiy natija beradi. Umumta`lim maktablarini 9-sinfda “Zamonaviy ekologik muammolar” mavzusini o`qitishda interfaol metodlarning quyidagi turlardan foydalanishimiz mumkin:

- “Olma daraxti” metodi




- “Maktub” metodi
- “Baliq skeleti” metodi
- “Aqliy hujum” metodi

Olma daraxti - metodi

Olma daraxti metodida doskaga olma daraxti chiziladi. O'tgan mavzudan savollar tuziladi. Olma stikerlarga yozib doskaga yopishtiriladi. Sinfni uchta guruhga bo'linadi. “Olma daraxti- o'quvchilar olma stikerdagi savollarga javob berishadi. Bu o'quvchilarni qiziqishiga sabab bo'ladi. Barcha o'quvchilar darsga qatnashadi. O'tgan mavzuni mustahkamlab olinadi. Bu metod o'n daqiqa davom etadi. Savollar:

1. Tugamaydigan resurslar deb nimaga aytiladi?
2. Tugamaydigan resurslarga nimalar kiradi?
3. Tiklanadigan resurslar deb nimaga aytiladi?
4. Agroiqlimiy resurslar deb nimaga aytiladi?
5. Agroiqlimiy resurslarga nimalar kiradi?
6. Biologik resurslarga nimalar kiradi?
7. Yer resurslar qaysi tipga kiradi?
8. Suv resurslariga nimalar kiradi?
9. Quyosh energiyasi qaysi tipga kiradi?
10. Jahon umumiy yer hajmi qancha?

Stikerlari ostida yuqoridagi savollar bo'ladi. O'quvchilar stikerlarini tortib savollarga javob berishadi.



I-rasm Olma daraxti metodi chizmasi

Maktub metodi

Maktub metodini qo'llash mumkin. Bu metod zamonaviy texnologiyadan biri hisoblanadi. Maktub metodi - yangi mavzu matni bo'laklarga bo'lib maktubga joylanadi. O'quvchilar maktubni ochib bo'laklarni birlashtirib mavzuni bir qismini birinchi


guruh sardori yana bir qismini ikkinchi guruh sardori va qolgan qismini uchinchi guruh sardori uqib beradi. Bu metod o'quvchilarni harakatga undaydi. Albatta yangi mavzuni ham o'zlashtirib olishadi. Bu metod o'n minut davom etadi. Albatta metod yakunlangandan keyin ustoz besh daqiqa mavzuni so'zlab beradi.

Jamiviat butun tarixi davomida tabiiy muhit bilan chambarchas bog'liq ravishda rivojlanib borgan. Tabiiy resurslardan foydalanish, ularni muhofaza qilish va qayta tiklash bilan bog'liq faoliyat sohasi *tabiatdan foydalanish* deb ataladi. Tabiatdan foydalanish *oqilona* va *nooqilona* tarzda amalga oshirilishi mumkin. Tabiatdan oqilona foydalanilganda, tabiiy boyliklar me'vorida iste'mol qilinib, ularni muhofazalash va qayta tiklashga, atrof tabiiy muhitning sog'lom holatini saqlashga kerakli darajada e'tibor beriladi. Agar jamiviatning xo'jalik faoliyati natijasida tabiiy muhit va uning resurslari holati salbiy tomonga o'zgarib borsa, tabiatdan foydalanish nooqilona hisoblanadi. Tabiatdan nooqilona foydalanilganda, landschaftlardagi muvozanat buziladi hamda turli ko'lam va ko'rinishdagi ekologik muammolar vujudga keladi. **Ekologik muammo** tabiatdan nooqilona foydalanish natijasida tabiiy muhit sifatining yomonlashishidir. Ekologik muammolar hududiy ko'lami iihatidan 3 pog'onaga bo'linadi: – global (savvoraviy); – regional (mintaqaviy); – lokal (mahalliy). *Global* ekologik muammolar butun geografik qo'biqning holatiga ta'sir ko'rsatadi va ularni vechish borasida jahondagi barcha davlatlarning harakatlarini birlashtirish lozim. *Regional* ekologik muammolarning oqibatlari bitta voki bir nechta qo'shni davlatlar hududida seziladi. *Lokal* ekologik muammolar esa kichik ko'lamdagi hududlar doirasida to'v beradi. Quyida hozirgi davrning eng dolzarb global ekologik muammolaridan ba'zilar haqida ma'lumotlar keltirilgan. «*Issiqxona samarasi*» muammasi. Atmosfera elektr energetika, metallurgiya, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari, transport vositalari, fazoga kosmik kemalarni uchirish hamda vong'inar tufavli kuchli ifloslanmoqda. Har vili milliardlab tonna qattiq gazsimon, aerazol chiqindilar atmosferaga chiqarib yuborilmoqda. Atmosfera tarkibida, avniqsa, is gaz (CO), karbonat angidrid (CO₂) oltingugurt oksidlari (SO₂, SO₃), azot dioksidi (NO) salmog'ining oshib borishi katta ekologik muammolarni keltiribchiqarmoqda. Atmosferadagi bu gazlar miqdorining ortishi natijasida Quvoshning isitish rejimi buzila boshladi. Yuqorida sanab o'tilgan gazsimon moddalarning atmosferadagi zarrachalari ver sirtiga kelavotgan nurlanishni o'tkaza turib, undan qaytavotgan issiqlik radiatsiyasini atmosferaning pastki qatamlaridan yuqoriga vaxshi o'tkazmaydi. Bu jaravon atmosfera pastki qatlamining o'rtacha yillik harorati asta-sekin ko'tarilishiga, va'ni global iqim sharoitining o'zgarishiga olib kelmoqda. O'z navbatida bu holat, savvoramiz qutblari va baland tog'laridagi ko'p yillik muzliklar maydonining qisqarishiga olib kelmoqda. Bu muammoni bartaraf qilish uchun jahondagi barcha davlatlar «*Issiqxona*» gazlarining atmosferaga chiqarilishini kamaytirishlari lozim. Yaponiyaning Kioto shahrida 1997-yilda bir nechta rivojlangan hamda o'tish iqtisodivotidagi davlatlar maxsus shartnoma («*Kioto protokoli*») ni imzolab, bu borada aniq maiburivatlarni o'z zimmalariga olgan. **Ozon qatlamining yemilishi muammasi.** Atmosferaning ifloslanishi insoniyat oldiga vana bir murakkab muammoni qo'ymoqda. Keyingi villarda havoga ftor-xlorli birikmalar (freonlar) ning ko'p chiqarib yuborilishi natijasida Yerdagi hayotning dalqoni hisoblangan ozon qatlamining tobora yuqaalashibborishi kuzatilmoqda. «*Ozon tuvnugi*» deb nomlangan ana shu holat, dastlab Janubiy Amerikaning Antarktidaga tutash hududlari, so'nggi villarda esa Yevrosivonning shimoliy kenagliklari ustida ham kuzatila boshladi (5-rasm). Kanadaning Monreal shahrida 1987-yilda bir nechta davlatlar freon gazlarini ishlab chiqarishga va ulardan foydalanishga cheklovlar to'g'risidagi xalqaro bitimni imzolagan. Bugungi kunga kelib, bu bitimga jahondagi aksariyat mamlakatlar qo'shilgan. Mutaxassislarning fikricha, agar Monreal bitimi qat'iy ravishda bajariladigan bo'lsa, ozon qatlamining me'vordagi qalinligi 2050-yilga kelib qayta tiklanadi. **Cho'llashish muammasi.** Cho'llashish deb, cho'llikxususiyatlari xos bo'lgan hududlar maydonining kengayib borish jaravoniga avtiladi. Uning asosiv sabablari daraxt va butalarning kesilishi, chorva-mollarining tartibsiz boqilishi, suv resurslaridan nooqilona foydalanilishi hisoblanadi. Cho'llashish o'nlab davlatlardagi eng unumdor verlarni o'z domiga tortmoqda. Cho'llashish, avniqsa, Afrika, Janubi-g'arbiy, Markaziv va Janubiv Osivo davlatlariga katta xavf-xatar tug'dirmoqda. Quruqlik umumiv maydonining 40 % qismida cho'llashish belgilari kuzatilmoqda. Yer yuzasining tegishli qismida 2 milliard kishidan ortiq aholi istiqomat qiladi. 1994-yilda BMT cho'llashishga qarshi kurashish to'g'risidagi Xalqarokonvensivani qabul qildi. 1995-yildan boshlab har yili 17-iyunda Butunjahon cho'llashish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish kuni nishonlanadi. 2010–2020-yillar oralig' BMT tomonidan «*Cho'llar va cho'llashishga qarshi kurashishga bag'ishlangan o'n yillik*» deb e'lon qilingan.

2-rasm. Maktub ichida shunday qirqilgan qog'oz bo'laklari bo'ladi.

Baliq skeleti metodi

“Baliq skeleti” metodi yuqori suyakchalariga ekologik muammolarni yoziladi. Quyi suyakchalariga o'quvchilar hal qilish yo'llarini yozishadi. Bu metod o'quvchilarni kreativ fikrlashga va o'ylashga undaydi. Bu metod muammoli o'qitishga kiradi. Sinfni uch guruhga bo'lib. Har bir guruhga A3 formatdagi qog'ozlarga chizib, yuqori qovurg'achalariga muammolarni yozib beriladi. Bu metod 10 daqiqa davom etadi. Besh daqiqa topshiriq bajariladi. Besh daqiqa o'quvchilar bilan bahs munozara o'tkaziladi



Aqliy hujum metodi

Aqliy hujum – o‘quvchilarga tezkor savollar beriladi. Ular tezda javob berishi zarur. Yangi mavzuni shu o‘yin orqali mustahkamlab olinadi. Bu metod besh daqiqa davom etadi. Quyidagi savollar beriladi.

1. Ekologik muammolari deb nimaga aytiladi?
2. Ekologik muammolar ko‘lamiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
3. Global ekologik muammolar deb nimaga aytiladi?
4. Lokal ekologik muammolar deb nimaga aytiladi?
5. Regional ekologik muammolar deb nimaga aytiladi?

Yuqoridagi interfaol metodlardan foydalanganimizda ta‘lim sifati oshadi. Ayniqsa “Olma daraxti” metodi va “Maktub metodi” barcha o‘quvchilarni darsga qiziqishini oshiradi.. Va o‘quvchilarni jamoa bo‘lib ishlashni o‘rganishadi. O‘quvchilar o‘rtasida ahillikni paydo qiladi. Ayniqsa “Olma daraxt” metodi o‘quvchilarni diqqatini jalb qildi chunki o‘quvchilar noodatiy narsalarga qiziqishadi. Bu metod yaxshi natija berdi. O‘tgan mavzuni yuqori kayfiyatda mustahkamlab olish mumkin. “Maktub metodi” o‘qituvchi uchun foydali, chunki u o‘quvchilarga mavzuni so‘zlab berish uchun energiya sarflamaydi va o‘quvchilar ham o‘qituvchini tinglab o‘tirishga sabri yetmaydi va tez zerikib qoladi.

“Baliq skeleti” metodi o‘quvchilarni diqqatini jalb qiladi. O‘quvchilarda kommunikativlik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantiradi. “Aqliy hujum” metodi o‘qituvchi bilimi va mahoratini belgilab beruvchi metod hisoblanadi. Chunki Aqliy hujum- metodini o‘quvchilarni darsni qay darajada o‘zlashtirganini bilib olishimiz mumkin. Men ham darsda qo‘llaganimda nimada xato qilganim va o‘z ustimda qaysi tomonlama ishlashimni bilib oldim. Bir so‘z bilan aytganda men foydalangan barcha metodlar ijobiy natija berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risidagi qonuni”.
2. Prezident qarorlari va farmonlari (gov.uz)



3. Meliboyeva F.S, Berdiyev G.X Qo'qon DPI "Ekologik ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarni o'rni". Zamonaviy uzluksiz ta'lim sifatini oshirish: Innovatsiya va istiqbollar xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent 2020

4. Meliboyeva F.S "Interfaol dasturiy vositalar – geografiya ta'limi jarayoni samaradorligini ta'minlash omili sifatida". Zamonaviy uzluksiz ta'lim sifatini oshirish: innovatsiya va istiqbollar xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent 2020

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бердиев, Файратжон Хасанбоевич, and Феруза Солижонова Мелибоева. "СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТРАНСЧЕГАРАВИЙ МУАММОЛАРИ." Интернаука 10-4 (2017): 29-31.

2. Мелибоева, Феруза Солижонова, and Файратжон Хасанбоевич Бердиев. "СУВ ТАҚЧИЛЛИГИДА СУҒОРИШ УЧУН ОҚАВА СУВИДАН ФОЙЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИНИ БАХОЛАШ." Интернаука 10-4 (2017): 31-34.

3. Мелибоева, Феруза Солижонова. "ФАРҒОНА ВОДИЙСИ СУВ РЕСУРСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ АҲАМИЯТИ." Интернаука 10-4 (2017): 34-36.

4. Мелибаева, Феруза Солижановна, and Баходир Асамович Камалов. "Оценка возможности использования канализационных сточных вод для орошения при нехватке оросительной воды." Europäische Fachhochschule 1 (2016): 3-6.

5. Мелибаева, Ф. С. "Распространение инфекционных заболеваний в кишлаках юго-западной части Дангаринского района Ферганской области." Материалы республиканской конференции "Актуальные вопросы охраны окружающей среды Узбекистана". Самарканд. 2013.

6. Meliboeva, F. S. "GEOGRAPHICAL FEATURES OF MANUFACTURING AND HUMAN HEALTH." Экономика и социум 2-1 (93) (2022): 73-76.

7. Meliboeva, F. S. "MANUFACTURING IMPACT ASSESSMENT ON HUMAN HEALTH." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI 3.12 (2023): 113-115.

8. Meliboeva, F. S. "DISEASES CAUSED BY ENVIRONMENTAL POLLUTION IN THE KOKAND OASIS." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI 3.12 (2023): 116-119.